

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 24 645,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 8,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylari narxlariga nisbatan 110,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Sirdaryo viloyatining qo'shgan hissasi 1,9 % ga yetdi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida Sirdaryo viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



-  YAHM o'sish sur'ati
-  YAHM hajmi
-  YAHM deflyator indeksi
-  YAIMga qo'shgan hissasi




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024- yil	2025- yil	
I. YAHM, jami	20 489,7	24 645,9	108,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 118,4	23 990,8	108,4
mahsulotlarga sof soliqlar	371,3	655,1	110,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	20 118,4	23 990,8	108,4
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 135,1	6 937,5	105,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	7 312,9	9 250,2	112,3
sanoat	5 959,8	7 424,0	108,1
qurilish	1 353,1	1 826,2	130,7
xizmatlar	6 670,4	7 803,1	106,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 929,6	2 294,3	110,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa	706,6	889,4	112,5
boshqa xizmat tarmoqlari	4 034,2	4 619,4	104,4

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 26 310,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 6,6 % ga yuqoridir.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2024- yil	2025- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	98,2	97,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1,8	2,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30,5	28,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	36,3	38,5
sanoat	29,6	30,9
qurilish	6,7	7,6
xizmatlar	33,2	32,6
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	9,6	9,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,5	3,7
boshqa xizmat tarmoqlari	20,1	19,3




2025- yilning yanvar-sentabr oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,7 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 28,9 % ni, sanoat tarmog'i 30,9 % ni, qurilish 7,6 % ni va xizmatlar sohasi 32,6 % ni tashkil qildi.

Yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,6 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 1,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 2,0 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,3 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 2,0 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-sentabrida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 105,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 28,9 %), sanoatda – 108,1 % (30,9 %), qurilishda – 130,7 % (7,6 %), xizmatlar sohasida – 106,9 % ni (32,6 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 110,1 % (9,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,5 % (3,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 104,4 % dan (19,3 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



4,2 %

YAHM

8,4 %



0,2 %

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

5,4 %



7,0 %

Sanoat

8,1 %



4,2 %

Qurilish

30,7 %




6,5 %

Xizmatlar

6,9 %

2025- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 110,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 115,2 % va xizmatlarda – 109,4 % qayd etildi.

Yanvar-sentabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 16 610,0 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 13 351,1 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 69,2 % ni (2024- yilning yanvar-sentabr oylarida – 66,4 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

**Yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va
YAHMdagi ulushi**
(jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

13 351,1

66,4 %

2025- yil

16 610,0

69,2 %

